

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ABDULLA AVLONIY TARJIMAI HOLIGA YANGI NAZAR

*Artikova Yulduz
O‘zJOKU, f.f.n., dotsenti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX- asr oxiri- XX-asr boshida yashab ijod qilgan ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi bo‘lgan Abdulla Avloniy tarjimai holi yangicha ilmiy tahlil qilinadi. Ma'lumki, Sovet davrida ziyoli, ma'rifatparvar insonlar xalq dushmani sifatida qatag‘onga uchraganlar. Otib o‘ldirilganlar, oila a'zolari xalq dushmanining yaqinlari sifatida siyosiy tayziqqa uchraganlar. Aksariyat adiblar, olimlar tarjimai hollarini o‘zgartirishga, nasl nasabini yashirishga majbur bo‘lganlar. Badiiy asarlarda zodagon boylar salbiy obrazda tasvirlangan. Maqolada Abdulla Avloniy tarjimai holiga siyosiy sabablar bilan kiritilgan o‘zgartirishlar ilmiy manbalar va xotiralar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, milliy taraqqiyot, ma'rifatparvarlik, milliy uyg‘onish davri adabiyoti, qatag‘on qurbanlari, Sovet davri siyosati, tarjimai hol, biograf, mahalla.

Kirish qism (Introduction)

Adabiyot va san'at ahlining ijodlarini o‘rganishda ular yashagan davr va zamon, boshidan kechirgan voqyealar tafsilotlari, yaqinlari va do‘satlari haqidagi ma'lumotlarning ahamiyati katta. Ayniqsa, zamona zayli bilan ularning hayoti va ijodi yetarli o‘rganilmagan yoki o‘sha davr talabiga ko‘ra tarjimai hollariga xolis va haqqoniy yondashilmagan bo‘lsa. Bu borada yurtimizning yaqin o‘tmishi bo‘lgan ozodlik uchun o‘z hayotlarini qurban qilgan jadidchilik namoyondalarining taqdirlari, ayniqsa, ilmiy izlanishlarga muhtoj sohalardir. Chor Rossiysi bosqini, undan keyingi Sovet davrining siyosati tufayli yurtimiz tarixida keskin burilish yasagan bu davr yorqin ranglar bilan qalamga olinishi bugungi davr talabidir. Tarixsiz kelajak yo‘q ekan, yaqin o‘tmishimizga bir oz hotirjam va xolis nazar bilan boqish har birimizning burchimizdir.

Millat taraqqiyoti iqtisodiyot, siyosat yoki tashqi aloqalar bilan emas, balki ma'naviyat, ma'rifat, tarbiya bilan uzviy bog‘liqligini jahon tamaddunida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Yaponiyaning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lida ko‘rishimiz mumkin. Yurtimizda ham bunday ezgu g‘oyalar yo‘lida millatning yorqin namoyondalari hayotlarini fido qilganlar. Ma'rifatparvarlik harakatiga bosh bo‘lgan, millatimiz, vatanimizning jaholat botqog‘idan olib chiqishni - eng birlamchi zarurat deb belgan jadidlarning yorqin vakillaridan biri Abdulla Avloniydir.

Asosiy qism (Main part)

Abdulla Avloniy o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotidagi o‘rni, o‘zbek jurnalistikasi taraqqiyotiga qo‘shgan xissasi, milliy pedagogikamiz poydevorini yaratuvchisi hamda o‘zbek teatrining asoschisi sifatida yurtimiz tarixida o‘z o‘ringa ega shaxslardan biridir. Ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi bo‘lgan Abdulla Avloniy “....jadidchilik harakatiga qo‘shilib, Toshkentdagi

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALALARING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib tanildi. Avloniy 1904 yilda Mirobodda, so‘ngroq Degrezda huddi shunday yangi usulda, yangicha maktab ohib, dars berdi va darsliklar yozdi. (*Mergancha, Degrez, Toshkent shahrinin mahallalarning nomi* - mual. Yu.O.) 1909 yilda maktab maorif ishlariga yordam beruvchi “Jamiyati xayriya” ohib, yetim bolalarni o‘qitdi. “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” nomli to‘rt qismdan iborat she’riy to‘plamining birinchi juz’ini nashr qildirdi. Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo‘jaev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo‘jaev, Shokirjon Rahimi kabi taraqqiyichilar bilan sheriklikda “Nashriyot” (1914), “Maktab” (1916) shirkatlarini tuzdi. “Taraqqiy”, “Shuhrat” (1907), “Osiyo” (1908), “Turon” (1917) gazetalarini chiqardi. 1918 yilda Turkiston Shurolar hukumatining birinchi gazetası “Ishtirokiyun”ning tashkilotchilaridan va uning birinchi muharrirlaridan bo‘ldi” [2].

Abdulla Avloniyning hayoti boshqa jadidchilik namoyondalaridan bir oz farq qiladi. Boshqa jadidlardan, ziyolilar, adabiyot va san’at namoyondalardan farqli o‘laroq Abdulla Avloniy qatag‘on qilinmagan, ammo ijodi, barcha jadidlar ijodi qatori, 1966 yilgacha o‘rganilmagan, assarlari shu yilgacha chop etilmagan. Aynan shu davrda bir oz muddatda siyosatda o‘zgarishlar bo‘lib, Sobiq Sovet davlatlari ichida qatag‘on qurbonlari haqidagi ma'lumotlar ommaga taqdim etilgan.

Shu o‘rinda Abdulla Avloniy tarjimai holi va boy merosini bugungi kungacha yetib kelishi borasida so‘z yuritsak. Tarixdan ma'lumki, buyuk insonlar yonida doimo ularni qo‘llab -quvvatlab turuvchi donishmand ayollari bo‘lgan. Bibixonim, Nodirabegimlar bunga yaqqol misol bo‘ladilar. Abdulla Avloniyning boy madaniy merosining bugungi kungacha yetib kelishiga ham ularning zavjalari Salomat ayaning alohida o‘rnilarini bor. Hozirgacha bu alloma haqidagi aksariyat nodir ma'lumotlar ayollari Salomat aya Islomovaning adabiyotshunos Begali Qosimovga 1966 yili taqdim etgan qo‘lyozmalar, hujjatlarga tayaniladi. Qatag‘on yillari Abdulla Avloniy “xalq dushmani” deb qoralanmagan, ammo o‘limidan so‘ng asarlari chop etilmagan. Go‘yo, o‘zining bevaqt o‘limi bilan Abdulla Avloniy o‘z sha'ni, oilasining tinchligini havf-xatardan himoya qilib qolgandek. Demak, o‘tgan asrning qatag‘on yillarida Sobiq Sovet davri siyosati barcha jadidlar kabi Abdulla Avloniyning asarlaridagi ezgu niyatlardan “ko‘ngli to‘lmagan”, uning g‘oyalari Sovet siyosatiga “to‘g‘ri kelmagan”. 1934 yildan 1966 yilgacha Salomat aya Abdulla Avloniyning asarlarining qadri - vaqt kelib juda baland bo‘lishini bilganlar. Qo‘lyozmalarini asrab- avaylaganlar, zamonlar o‘zgarib, yurtimizning ma'rifatparvarlariga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarishiga ishonganlar. Abdulla Avloniyning taqdirida sadoqatli va vafodor bu ayolning tutgan o‘rni borasida qator ilmiy izlanishlar olib borish yosh tadqiqotchilarimiz oldida turgan navbatdagi vazifalardan biridir. Garchi Salomat Islomova haqidagi ma'lumotlar juda oz bo‘lsa -da,

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Abdulla Avloniyning g‘oyalarini tushunish, uning asarlarini qadrlash uchun bu mo‘tabar ayolning o‘zлari ham nihoyatda ziyoli, ma’rifatli va taraqqiyparvar bo‘lganlar.

Abdulla Avloniy o‘sha paytlarda barcha ziyyolilar kabi tarjimai holiga “zaruriy” o‘zgartirishlar kiritgan, degan ehtimol mavjud. Barcha kabi u o‘zining ijtimoiy kelib chiqishini - oddiy kambag‘al kosib oilasida ekanligini, nihoyatda nochor ahvolda ulg‘ayganini ta‘kidlaydi. Begali Qosimov nashrnga tayyorlagan Abdulla Avloniyning “Tarjimai holim”da bu borada shunday yozilgan: “1878 yil melodiya, 12 iyulda Toshkentning eski shahar Shayhontohur daha Mergancha mahallasida faqirhol bir oilada tug‘ilganman. Otamning ismi Miravlon, onamning oti Fotimadir. Otamning tub kasbi to‘quvchilik (bo‘zchilik) bo‘lib, so‘ng zamonlarda Yarmanka bozorida yoymachilik qilib, bo‘z va chit bilan savdo qilur edi” [3]. Sovet davrida yashab ijod qilgan barcha ziyyolilar tarjimai holini aynan shunday belgilashadi. Ilm-fanga o‘z xissasini qo‘sghan ziyyolilarimiz oddiy ishchi -kosiblar oilasidan qiyinchilikda ulg‘ayib, faqat “Sovet tizimi va partiya”ning “g‘amxo‘rligi va mehribonligi” tufayli ana shunday bilimli, oliv ma'lumotli bo‘la olganliklarini ta‘kidlashlari - Sovet siyosatining bir qismi bo‘lgan. Bunday “o‘zgartirishlar” tufayli ziyyolilarimizning haqiqiy hayotlari “parda” ortida qolib ketadi.

Ma'lumki, Abdulla Avloniy o‘z davrining yetuk ziyyolilaridan biri bo‘lib, nafaqat dunyoviy, balki diniy bilimi ham yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘lgan. Sovet davrigacha, aksariyat ziyyolilar (Mir avlodlar asosan ziyyolilar bo‘lgan) o‘zbek tilidan tashqari arab va fors tillarini mukammal bilishgan. Diniy ilmni arab tili orqali o‘rganishsa, badiiy adabiyotni chuqur bilish uchun fors tilini mukammal bilishlik talab etilgan. Kambag‘al kosib oilasida emas, balki o‘ziga to‘q ziyyoli oiladan bo‘lgan Abdulla Avloniy o‘zining ijtimoiy mavqyeidan kelib chiqib ilmli inson bo‘lgan. Umuman olganda, Abdulla Avloniy o‘zbek, arab, fors tillaridan tashqari rus, tatar, ozarbayjon turk tillarini mukammal bilgan. Bir qator badiiy adabiyot namunalarini o‘zbek tiliga mohirona tarjima qilgan. O‘z tarjimai holida ko‘rsatilganidek, faqat qish kunlarigina ta’lim olishga imkoniyati bo‘lganida Abdulla Avloniy bunchalik ilmli, bilimli, keng tafakkurli inson bo‘lib voyaga yeta olmasdi. U o‘zining tarjimai holiga davr talabiga mos ravishda o‘zgartirishlar kiritgan bo‘lishi shubhasiz. “Abdulla 7 yoshdan O‘qchidagi eski maktabda Akromxon domlada savod chiqardi. 1890 –yilda shu mahalladagi madrasaga o‘tdi. So‘ng Shayhontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla umar Oxunda tahsil ko‘rdi.... Adabiyotga havas unda shu yillari uyg‘ondi. Navoiy she’riyatiga, Fuzuliy g‘azallariga mehr qo‘ydi. So‘ngra ishtiyooq bilan fors tilini o‘rgandi. Sa’diy va Hofizning olamidan zavq shavq oldi. Nihoyat bular o‘z samarasini berdi. O‘zi kamtarona qayd qilganidek “she’r yozishga tutindi”.[1]

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Tarixga nazar solsak. Avvallari Toshkent shahri Anhor kanalida yakunlanib, Chor Rossiyasi bosqinidan so‘ng uning bir qismi Yangi shahar, yana biri Eski shaharga bo‘lingan. Hozirgi Eski shahar nomi shu davrdan qolgan nomdir. Anhorning sharqiy tomonida Shayhontohur dahasida yashovchilarning dala hovlilari bo‘lgan. Ma'lumki, taniqli adibimiz Oybek “Qutlug“ qon” asarida qalamga olingen Mirzarkarimboyning prototipi - Mirkarimboy Toshkentning katta savdogarlardan biri bulib, uning dala hovlisi ham shu yerlarda joylashgan. Temir yo‘l qurilganidan keyin Mirkarimboyning yerlariga talab katta bo‘lgan. U o‘zining dalasi o‘rniga xonadonlar qurdirib, ijaraga bergen. Mirkarimboyning o‘g‘illari Mirafzal va Mirqosimlarga o‘sha dalalar o‘rnidagi uy joylar meros bo‘lib qolgan. Keyinchalik ularning avlodlari shu yerlarda yashab umrguzaronlik qilishgan. Obod bo‘lgan yerlarni aholi o‘z tilida “Mirobod”- “Mirlar obod qilgan yerlar” deb atashadi. Ruslar mahalla tushunchasini yoqtirishmagan (balki tushunishmagan). Shuning uchun ko‘chalar nomini “Mirabadskaya” deb atashadi. Bugungi kunda Mirobod tumanining asl nomi o‘sha davrlardan qolgan. Mirkarimboyning va boshqa “mirzoda”larning avlodlari shu yerda yashashgan, o‘zaro quda-anda bo‘lishgan. Abulla Avloniy ham Mir avlodga mansub bo‘lgan. Uning otasining to‘liq ismi Miravlon, bobosiniki Mirne'matboy bo‘lgan. Avloniyning ayollari Salomat Islomova ham o‘z davrining boy zodagon oilasining farzandi bo‘lib, xat savodli ziyoli ayol bo‘lganlar. Bu haqda uning biograflari shunday yozishadi: “1900 yilda Avloniy toshkentlik savdogar bir xonadonning Salomatxon degan qiziga uylanadi. Shu yili uning otasi vafot etadi”[1]. U otasining o‘limidan so‘ng, bobosidan meros qolgan dala hovlisiga ukasi bilan o‘ziga uy qurib, ikki oila hovli joyli bo‘lishgan. “Hozirgi Mirobod mahallasi o‘rnida Mirne'matboyning bog‘ hovlisi bo‘lgan. Toshkent bosib olinib, Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylantirilgach, Mirobod shaharning yangi - «rus» qismiga qo‘sib olinadi va turli imoratlar, korxonalar qurish uchun bo‘lib beriladi. Sapyorniy, Gospitalniy ko‘chalari paydo bo‘ladi. Miravlonboyning ikki o‘g‘li — Abdulla va Mirsiddiq ham shu yerda hovli-joy qiladilar”.[1] Ya’ni, aka-uka Avloniylar oilalari ancha yillar davomida bobosining dala hovlisi o‘rnida qurilgan hovlilarda yashashgan. Ularning shahar hovlisi, Abdulla Avloniy o‘z tarjimai holida ko‘rsatganidek, Merganchi mahallasida bo‘lgan. Demak, shahar va dala hovlilarga egalik qilgan Miravlon nochor va kambag‘al kosib bo‘lmagan. Abdulla Avloniy o‘sha davrning talabiga binoan tarjimai holiga shunday deb yozishga majbur bo‘lgan. Afsuski, uning biograflari ham davr talabiga binoan bu tendensiyani davom ettirishadi: “...Ammo tirikchilikning og‘irlashuvi o‘qishga imkon bermaydi. «1891 yildan boshlab, faqat qish kunlarida o‘qub, boshqa fasllarda mardikor ishladim» — deb yozadi Avloniy. Ko‘p o‘tmay, bu ham barham topdi. U butunlay ishga sho‘ng‘ib ketdi. O‘zi aytganidek, «binokor»likni

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o‘rgandi, «g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari» bilan mashg‘ul bo‘ldi”[1]. Shu o‘rinda biograflar uning otasining va bobosining ismlariga “boy” qo‘srimchasini qo‘shib “Miravlonboy”, “Mirne’matboy” shaklida yod olishlariga ham e’tiborni qaratish kerak. Odatda kambag‘al kosiblar ismiga bu kabi qo‘srimchalar qo‘shib aytilmagan. Zodagon va mulkdorlar ismiga qo‘shib aytiladigan “boy” qo‘srimchasi Abdulla Avloniyning ijtimoiy kelib chiqishiga yana bir oydinlik kiritadi. Afsuski, Sovet davri siyosatining talabi bilan Abdulla Avloniyning o‘zi tarjimai holini o‘zgartirishga majbur bo‘lgan. Sovet davrida esa yillar davomida bu ma'lumotlar tarixiy fakt sifatida qabul qilinadi. Adabiyotshunoslar esa, adibning ijodi ilmiy tadqiq etilishiga Sovet siyosati rahbariyati ruxsat berilishi uchun uning tarjimai holiga o‘zgartirishlar kiritishiga majbur bo‘lishgan.

Natijalar va Muhokamalar (Results and Discussions)

Tarjimai holida Avloniy ko‘pchilik uni “imoratchi usta” deb ataganini yozadi [7]. Bu tabiiy hol. Chunki yurtimiz boylari qadimdan kambag‘alparvar va halol mehnatni ulug‘laydigan insonlar bo‘lishgan. Masalan, Mirkarimboy Toshkentga bиринчи bo‘lib Germaniyadan “Zinger” tikuv mashinasini olib keladi va uning qizi Nisobibi bu mashinada savob bo‘lishi uchun... koranda- ishchilar uchun issiq nimcha tikib beradi. Ya’ni, shaharning yirik puldorlari nafaqat ziyoli, balki hunarli ham bo‘lib, kambag‘al va nochorlarga g‘amho‘rlik qilib kelishgan. Bunday savobli ishlar odatiy holga aylangan. Abdulla Avloniy ham nochor hayotdan emas, balki o‘sha davr boyonlarning farzandlari kabi mehnatdan or qilmay, bir nechta hunarlarni egallab, odamlarga xolis yordam bergen bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Abdulla Avloniyning keyingi faoliyatida ham hayriya ishlariga katta ahamiyat qaratilgandi. U “1909 yilda «Jamiyat xayriya» ochdi va mahalliy xalq bolalarining o‘qib bilim olishi uchun pul yigib, maktablarga tarqatdi. Bu haqda hatto Orenburgdagi «Vaqt» gazetasi yozib chiqdi” [1]. Demak, Abdulla Avloniy Sovet tuzumi kirib kelishidan ancha avval hayriya hamda ma'rifatparvarlik yo‘lida qator tahsinga sazovor ishlarni boshlagan. Abdulla Avloniyning biografi bo‘lgan Begali Qosimov bu borada shunday izoh keltiradi: “Jamiyatning 1909 yil 12 mayda tasdiqlangan 41 moddalik Nizomidan ma'lum bo‘lishicha, uning maqsad va faoliyat doirasi keng bo‘lib, Sirdaryo viloyati (Toshkent Sirdaryo viloyatining poytaxti edi.—B.Q.) hududidagi nochor, muhtoj musulmonlarning moddiy-ma'naviy ahvolini yaxshilash, jumladan, yetimlar, keksalar, nogironlar uchun kasalxonalar, ambulatoriya, choyxona, oshxona, yotoqjoylar ochishdan tortib, yoshlarni maktabda o‘qitish, so‘ng chet ellarga yuborishgacha bo‘lgan masalalarni ko‘zda tutar edi”[1]. Demak, Abdulla Avloniy asl kelib chiqishi zodagon oiladan bo‘lib, o‘sha davrning aksariyat mulkdorlari kabi hayriya ishlari bilan keng ko‘lamda shug‘ullanadi. Uning atrofidagi barcha

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

zodagonlar bu kabi hayriya ishlarga moliyaviy jihatdan ko‘mak berishadi. Adibning tarjimai holidagi hunarmandchiliga oid qaydlari ham ana shunday hayriya ishlardan biri ekanligiga shubha yo‘q.

Abdulla Avloniyning ijtimoiy kelib chiqishiga oid yana bir jihat. O‘zbekchilikda qudashilik, “qarshi quda bo‘lish” kabi tushunchalar bor. Ya’ni, bir hil ijtimoiy qatlamga mansub oilalar qiz berib, qiz olishgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, Abdulla Avloniyning ayoli Salomat Islomova ham Toshkentning boy zodagon oilasining farzandi bo‘lgan. Maqoladagi tahlillardan kelib chiqib shuni aytish keraki, garchi adibning siyosiy tayziq tufayli o‘zi tarjimai holida buning aksini yozgan bo‘lsa-da, Avloniyning bobosi ham, otasi ham o‘sha davrning boy mulkdorlari, savdogar zodagonlari edi. Abdulla Avloniy to‘ng‘ich farzandi Savrinisoni Mirfayzi va Jannatnisoning o‘g‘li bo‘lgan Miryoqubga turmushga beradi. Ya’ni, Abdulla Avloniy o‘sha davrning katta savdogarlardan biri Mirfayzi va Toshkentning yirik mulkdorlaridan biri bo‘lgan Mirkarimboyning qizi Jannatnisoga quda bo‘ladi. Qudachilik, asosan, ijtimoiy mavqye bo‘yicha teng bo‘lgan oilalar orasida bo‘lganligini e’tiborga olsak, Abdulla Avloniy ham qadimdan ana shunday boyonlarning ijtimoiy mavqyeidagi oila vakili ekanligi yana bir bor ayon bo‘ladi.

Abdulla Avloniyning qizi Savrinisoning taqdirida Sovet davri siyosiy tizimining jirkanch ahvoli aks etadi. Uning Miryoqub bilan turmushi uzoqqa cho‘zilmaydi. Qizi Tuyg‘unoy ikki yosh bo‘lganida Miryoqub, o‘sha davrning ko‘plab ziyolilari kabi, qatag‘on bo‘lish havfi tufayli Turkiyaga ketib, jon saqlaydi. Savriniso ikki yoshli qizi bilan ota uyiga qaytishga majbur bo‘ladi. Yurtimiz ardog‘idagi sevimli san’atkorimiz Gavhar Zokirova Tuyg‘unoyning qizi bo‘lib, Abdulla Avloniyning evarasidir. Gavhar Zokirovaning xotirlashicha, Abdulla Avloniy kuyoviga o‘zi Turkiyaga ketib jon saqlash kerakligi borasida maslahatni bergen ekan. Miryoqubning chet elga qochishi o‘sha davr siyosiy tuzumiga ma’qul bo‘lmagan. Miryoqubning otasi, ayoli, keyinchalik qizini ham NKVD xodimlari tinmay so‘roqqa tortishar, bor “haqiqat”ni aytishlari uchun urib, kaltaklash usullaridan ham voz kechishmasdi. Bu zulmga chidolmay, bechora otaning tez orada joni uziladi. Savriniso qiyonoqli so‘roqlaridan xastalanib, uzoq umr ko‘rmaydi. Tuyg‘unoy otasini ikki yoshidan beri ko‘rmagan bo‘lishiga qaramay institutga kиргунiga qadar muntazam ravishda so‘roqlarga chaqiriladi. Abdulla Avloniyning to‘ng‘ich farzandining oilasining taqdiriga ko‘ra, o‘zi va oilasini himoya qilish uchun Abdulla Avloniy o‘z tarjimai holini o‘zgartirib yozishini siyosiy tayziqlar davri uchun tabiiy hol sifatida qabul qilinishi kerak.

Abdulla Avloniy turmush o‘rtog‘i Salomat Islomova bilan Savriniso, Karima, Qunduz, Hakima qizlarini, Asatilla, Otaliq, Kenja ismli o‘g‘il farzandlarni ko‘radi.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Xakima, Kenja farzandlari uzoq yillar davomida otalarining merosini saqlab, el-yurtga xizmat qilishadi. “Gospitalniy”dagi xonadonlarida Xakima aya Abdulla Avloniyga tegishli ashayolarni ardoqlab keladi. Taniqli adibimiz O’lmas Umarbekovning “Qizimga maktublar” asarida Abdulla Avloniy cheksiz mehr va e’tiqod bilan tilga olinadi. O’lmas Umarbekov ham Mirkarimboy kabi O’qchi mahallalik bo’lib, hovlilari Abdulla Avloniy, Mirkarimboy farzandlari xonadonlari kabi, Mirobod dahasida, o’sha paytlarda “Gospitalnyiy” deb ataladagan mavzeda joylashgan edi. Abdulla Avloniyning o’g’li Kenja aka uzoq yillar davomida O’lmas Umarbekov bilan yaqin do’st, ulfat bo’lishgandi. Shu o’rinda O’lmas Umarbekov, Abulla Avloniy, Mirkarimboylarning o’zaro qarindosh urug’chiligi bo’lganmikan degan tahminlar ham yo’q emas. Mirkarimboyning Mirafzal, Mirsoat, Mirqosim, Mirsulton ismli o’g’il farzandlari bo’lgan. Mirsoat O’lmas Umarbekovning Zulfiya ismli ammasiga uylanib, Umarbekovlar oilasiga kuyov bo’lgan. Ya’ni, Mirkarimboy oilasining Umarbeklar oilasi bilan ham qudashilik rishtalari bo’lgan. Mirobod tumanidagi bu uch oila o’zaro qudashilik bilan bog’langan ekan, Abdulla Avloniyning Kenja o’g’illarining O’lmas Umarbekov bilan do’stona munosabatlari uzoqroq bo’lsada qarindoshchilik munosabatlari bilan bog’liqligi ehtimoldan xoli emas.

Xulosa (Conclusion)

Sovet tizimi garchi ilm-fan rahnamosi sifatida o’zini namoish qilsada, odamlarni o’z nasli-nasabini yashirishga, qatag’ondan omon qolish uchun o’z ismidagi nasl nasab qo’shimchalaridan voz kechishga, tarjimai holida ijtimoiy kelib chiqishini “ishchilar sinfi”dan deb yozishga majbur qilingan. Sovet davrida fanda genetika sohasi inkor qilingan. Yirik mulkdorlar, savdogarlar, ziyorilar xalq dushmani sifatida qatag’on bo’lib, badiiy asarlarda salbiy bo’yoqda aks etishiga majbur qilingan. Masalan, Oybekning “Qutlug’ qon” romanidagi Mirzakarimboy obrazining prototipi Mirobod mahallasi asoschilaridan biri, Abdulla Avloniy oilasi quda bo’lgan Mirkarimboy bo’lib, o’sha davrning zodagonlari kabi qator hayriya ishlarini amalga oshirgan ma’rifatparvar inson bo’lgan. Abdulla Avloniyning o’z tarjimai holini o’zgartirib, o’z nasl-nasabini yashirganini yoki uning to’ng’ich farzandining oilaviy fojeasini hisobga olsak, Sovet davrida go’yo to’kin va to’q hayotda yashab ijod qilgan adiblar hayoti nechog’li tahlikali bo’lganligini ko’z oldimizga keltirish qiyin emas. Katta ehtimol bilan aytish kerakki, Mirne’matboyning nevarasi, Miravlonning o’g’li bo’lgan Abdulla Avloniyning to’liq ismi - Mirabdulla bo’lgandir. U holda, “Mirabdulla Miravlon o’g’li” adibimizning to’liq ismlari bo’lishi mumkin.

Ilmiy tahlillarga tayangan holda shuni xulosa qilish kerakki, Abdulla Avloniy Toshkentning yirik savdogarlaridan birining avlodidan bo’lib, nihoyatda ma’rifatli va

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ziyoli oilada ulg‘aygan. Zamona talabiga ko‘ra majburlikdan tarjimai hollarini o‘zgartirgan. Garchi qatag‘on qilinmagan bo‘lsa ham, ularning asarlaridagi asl mohiyat ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik va hurriyat bilan yo‘g‘rilgani uchun Sovet tizimi uchun Abdulla Avloniyning ijodi ma’qul bo‘lmagan va uning merosi ko‘p yillar davomida chop etilmagan, yetarlicha keng tadqiq etilmagan.

Demak, bugungi kunda Abdulla Avloniy qatorida Sovet davrida yashab ijod etgan barcha adiblarimizning hayoti, ijodi hamda tarjimai holidagi asliyatni haqiqatni yuzaga chiqarish uchun ob'ektiv tadqiq etish vaqtি keldi. Shu davrda yaratilgan asarlarga majburiy ravishda singdirilgan ma’naviyatimiz, tarixiy haqiqatimizga yot bo‘lgan fakt va dalillarni bevosita aniqlashtirish kerak. Izlanishlar natijasida tadqiqotchilarimiz allomalarimiz hayotidan yanada oshkora faktlarni topishlariga umid qilamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Istiqlol qahramonlari turkumidan. To‘plovchi va nashrga tay. B.Qosimov Ikki jildlik. 1 –jildi.T.: Ma’naviyat.2009
2. “Ma’naviyat yulduzları” .T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999
3. Milliy uyg‘onish va o‘zbek filologiyasi masalalari. T.: Universitet. 1993
4. ziyo.uz
5. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/abdulla-avloniy-1878-1934/?imlo=k>
6. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/abdulla-avloniy/>
7. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-shuhrat-rizaev-abdulla-avloniy-1878-1934/>
8. <https://arboblar.uz/uzkr/people/avloni-abdulla>
9. <http://e-adabiyot.uz/kitoblar/malumot/220-abdulla-avloniy.html>
- 10.<https://arboblar.uz/uzkr/people/kasymov-begali>
- 11.<https://shosh.uz/toshkentliklar-abdulla-avloniy/>